

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

BOTIRXON AKRAMOV – NAVOIYSHUNOS

Muqaddas SAIDAKBAROVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, F.f.b.f.d. (PhD)

mukaddassaidakbarova@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804895>

Annotatsiya: Mana bir necha asrlarki, Navoiy fenomeni ham shaxs, ham ilm ahli sifatida avlodlar e'tiborida, tadqiqotchilar nazarida. Illohiy nizomga xos shaxsiyatlar betakrorligi va muborakligi bilan ham ahamiyatlidirlar. Betakrorlik har bir mayjudlikka xos aniqlik bo'lib, muboraklik esa ba'zan kuzatiladigan, ba'zan kuzatilmaydigan noyob hodisadir. Ayni shu sifat "har yuz yil"ning tuhfalarini umumiyligidan ajratib beradi. Muboraklik sifat egasini fenomen mutafakkir nomda xoslash bilan birga, keyingi avlod ma'rifaty-ijtimoiy tamaddunida har sohada minglab masalalarga yechim sifatida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy shaxsi, ijtimoiy, siyosiy, adabiy, ilmiy faoliyati necha asrlarki tubi cheksiz ummon kabi tadqiqotchilarni o'ziga mahliyo qilishdan to'xtamaydi. Zukko olim Botirkhon Akramovning mazkur yo'nalishda olib borgan tadqiqotlari o'z o'rniga ega ilmiy izlanishlardan biri bo'lib, olimning navoiyshunoslik doirasida olib borgan tadqiqotlari adabiyotshunoslik yo'nalishining bebahoh manbasiga aylanib ulgurdi. Botirkhon Akramov XX asrda yashab ijod qilgan o'zbek millatining fidoyi, zabardast, oliyjanob fazilatli ma'rifatparvar vakilidir.

Kalit so'zlar: Navoiyshunoslik, o'ziga xos uslub, navoiyona yondashuv, ta'sir, mafkura tamoyili, maqolot, mundarija, tadqiqot, dolzarb, fenomen shaxs, ma'naviy sodiqlik.

Annotation: For several centuries, the phenomenon of Navoi, both as a person and as a scientist, has been in the eyes of generations, in the eyes of researchers. Personalities characteristic of divine order are also significant for their uniqueness and blessedness. Impermanence is a certainty inherent in every existence, and blessedness is a unique phenomenon that is sometimes observed and sometimes not. It is this quality that separates the gifts of "every hundred years" from the generality. Along with characterizing the possessor of the quality as a phenomenal thinker, it will gain importance as a solution to thousands of issues in every field in the educational and social civilization of the next generation. Alisher Navoi's personality, social, political, literary, and scientific activities never cease to fascinate researchers like an endless ocean. The research conducted by the intelligent scientist Botirkhan Akramov in this direction is one of the scientific researches with its own place, and the research conducted by the scientist in the field of narratology has become an invaluable source of literary studies. Batirkhan Akramov is a selfless, brave, enlightened representative of the Uzbek nation who lived and created in the 20th century.

Key words: Navoi studies, unique style, Navoi approach, influence, principle of ideology, article, content, research, topical, phenomenal personality, spiritual loyalty.

Аннотация: На протяжении нескольких столетий феномен Навои как человека и как учёного находился в глазах поколений и исследователей. Личности, свойственные божественному порядку, значимы также своей уникальностью и блаженством. Непостоянство — это определенность, присущая каждому существованию, а блаженство — это уникальное явление, которое иногда наблюдается, а иногда нет. Именно это качество отделяет дары «каждых ста лет» от обыденности. Наряду с характеристикой обладателя качества как феноменального мыслителя, оно приобретет значение как решение тысяч проблем во всех областях образовательной и социальной цивилизации следующего поколения. Личность, общественная, политическая, литературная и научная

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

деятельность Алишера Навои не перестают восхищать исследователей, как бескрайний океан. Исследования, проведенные умным ученым Ботирханом Акрамовым в этом направлении, являются одними из научных исследований, имеющих свое место, а исследования, проведенные ученым в области нарратологии, стали бесценным источником литературоведения. Батирхан Акрамов – самоотверженный, смелый, просвещенный представитель узбекской нации, живший и творивший в XX веке.

Ключевые слова: навоиведение, уникальный стиль, навоийский подход, влияние, идеологический принцип, статья, содержание, исследование, актуальная, феноменальная личность, духовная преданность.

Manbalarda har yuz yilda o‘ziga xos mujaddid olimlar yuborilishi haqida ta’kidlangan. Ushbu irfoniy qonuniyatda insonshunoslik nazariyasining muhim mezon, o‘lchovlaridandir. Insoniyat tarixida behisob olim, mutafakkir shaxsiyatlar yashab o‘tdilar, ularning har birlari shaxs sifatida ham, ilm ahli sifatida ham namuna o‘laroq faxriylardir. Ammo, bir haqiqat borki, behisoblik ichida ayri holda hisob etsa bo‘ladigan ma’rifiy qatlam vakillari borki, ular yuqorida zikr etilgan hadisi sharifda nazarda tutilgan xos shaxslarning asl hayotiy namunalaridir. Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy aynan shundaylar jumlasidandir deyish haqiqatga xilof kelmas aksiomadir. Mana bir necha asrlarki, Navoiy fenomeni ham shaxs, ham ilm ahli sifatida avlodlar e’tiborida, tadqiqotchilar nazarida. Illohiy nizomga xos shaxsiyatlar betakrorligi va muborakligi bilan ham ahamiyatlidirlar. Betakrorlik har bir mavjudlikka xos aniqlik bo‘lib, muboraklik esa ba’zan kuzatiladigan, ba’zan kuzatilmaydigan noyob hodisadir. Ayni shu sifat “har yuz yil”ning tuhfalarini umumiyligidan ajratib beradi. Muboraklik sifat egasini fenomen mutafakkir nomda xoslash bilan birga, keyingi avlod ma’rifiy-ijtimoiy tamaddunida har sohada minglab masalalarga yechim sifatida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy shaxsi, ijtimoiy, siyosiy, adabiy, ilmiy faoliyati necha asrlarki tubi cheksiz ummon kabi tadqiqotchilarni o‘ziga mahliyo qilishdan to‘xtamaydi. Navoiy faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning har biri navoiyshunoslik olamida yangi bir so‘z aytish hodisasi bo‘lish bilan birga keyingi yangi tadqiqotlar uchun chaqiriq vazifasini ham o‘taydi.

Zukko olim Botirxon Akramovning mazkur yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari o‘z o‘rniga ega ilmiy izlanishlardan biri bo‘lib, olimning navoiyshunoslik doirasida olib borgan tadqiqotlari adabiyotshunoslik yo‘nalishining bebaho manbasiga aylanib ulgurdi. Botirxon Akramov XX asrda yashab ijod qilgan o‘zbek millatining fidoyi, zabardast, oliyanob fazilatli ma’rifatparvar vakilidir.

“Kaminangiz – faqir-u haqir Botirxon Akramxo‘ja eshon o‘g‘li 1932-yilning 20-noyabrida Farg‘ona vodiysining qadimi O‘sh shahrida (arab manbalarida: “Xayr ul-baladon”, vodiyning ziyyaratgohlaridan – “Makkai Ajam”), dehqon-bog‘bon

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xonardonida tavallud topganman. Avval yetti yillik maktabda (sobiq Sulton mingboshi – olim va dramaturg Izzat Sultonning bobosi qurdirgan imoratlaridan birida), so‘ngra viloyat pedagogika bilim yurtida, O‘sh o‘qituvchilar institutida tahsil oldim. 1952-1954-yillarda Toshkent Nizomiy nomidagi pedagogika institutida o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida o‘qishni davom ettirdim.” [1.5]

Olimning o‘z hasbi holi bayonida ma’lumot berishicha, 1954-1963-yillarda o‘zi tavallud topgan shaharda o‘qituvchilik, madaniyat xodimi sifatida faoliyat yuritgan. 1963-1966-yillarda Nizomiy nomidagi pedagogika institutida aspiranturada Natan Mallayev, Maqsud Shayxzoda, Hamid Sulaymon kabi akademik olimlar qo‘lida tahsil olgan. Shu bilan birga 1966-1969-yillarda O‘zbekiston fanlar akademiyasida kichik ilmiy xodim sifatida ishlaganligi, 1967-yilda professor Hamid Sulaymon rahbarligida “Navoiy lirkasida majoziy obrazlar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi va 1991-yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqlaganligi, keyingi yillarda oliygochlarda professor pedagog sifatida faoliyat yuritganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

“Aspirantlik yillarimdan 1991-yilgacha uch monografik risolam nashr etildi: “She’riyat gavhari”, “Olamning butunligi”, “Fasohat mulkining sohibqironi”. Nihoyat, uchta kitobim nashriyot rejasiga kiritildi: “So‘z guhari”, “Navoiy shohbaytlari”, “Jahon gul ichinda”. 1969-2002-yillar orasida Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Zulfiya, Saida Zunnunova, Asqad Muxtor, Rauf Parfi, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va ko‘p boshqa ko‘plab shoirlar ijodini tadqiq va tahlil etuvchi yuzdan ortiq ilmiy-tanqidiy maqolalarim gazeta va jurnal sahifalarida e’lon qilingan. Boshqa bir yangi ijodiy ishtiyoq: daf’atan, kaminada uyg‘ongan orifona she’r “dag‘dag‘asi” (Bobur) va qasida-doston rag‘bati, balkim bu – qalam ma’budi Atorudning ilk mujdasidir...” [1.6]

Olimning o‘z hasbi holida ta’kidlashiga ko‘ra, uning quyidagi ilmiy-badiiy asarlari mavjud:

No	Asar nomi	Nashriyoti va nashr yili	Asar turi	Nashr adadi
3	“Fasohat mulkining sohibqironi”	Toshkent, “O‘zbekiston”, 1991	Ilmiy asar	15000
4	“So‘z guhari”	
5	“Navoiy shohbaytlari”	2007 yil, Toshkent, “Yangi asr”	Ilmiy asar	500
6	“Jahon gul ichinda”	
7	“Hayratlar olami”	Toshkent, “Turon Zamin Ziyo”. 2014	Lirik asar	400
8	Yurak yo‘llari	Toshkent, “Zilol	Ilmiy asar	500

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

buloq”, 2020

Botirxon Akramov bu kabi monografik tadqiqotlardan tashqari 120dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Maqolalar turli ilmiy konferensiya to‘plamlarida, jurnal va gazetalarda nashr ettirilgan. Olim ushbu maqolalarida nafaqat Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha, balki o‘zbek adabiyotining boshqa yirik vakillari, xususan zamondosh ijodkorlar ijodiga ilmiy munosabatlar bildirgan. Ammo hozirgacha Botirxon Akramovning ilmiy maqolalari jamlab alohida to‘plam ko‘rinishida nashr etilmagan.

2021-yilda O‘zbekiston navoiyshunoslik fondi tashabbusi bilan “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” nomli 30 jildlik to‘plamning 3-jildiga Botirxon Akramning “Fasohat mulkining sultonii” monografiyasi kiritilgan.

2022-yili olimning farzandlari tashabbusi bilan B.Akramov tavalludining 90 yilligi poytaxt ma’rifat va ma’naviyat go‘shalarida nishonlandi va uning ayrim asarlari qayta nashr ettirildi.

Botirxon Akramov qizi Guli Akramova boshchiligidagi “Botirxon Akram” elektron portali yaratilib, unda olim shaxsi va uning ilmiy-adabiy faoliyatiga doir qimmatli materiallar jamlab borilmoqda. [6]

Yuqoridagi faktik ma’lumotlarga ko‘ra, Botirxon Akramov faoliyatiga munosabat bildirish masalasi ayni chog‘da dolzarblik kasb etmoqda. Olimning dastlabki monografik tadqiqoti “Navoiy lirik olamida majoziy obrazlar” deb nomlanganligini ta’kidlab o‘tdik. Shunga ko‘ra, Alisher Navoiy ijodiy olamida majoz talqini rakursidan qarash bir ma’noda Botirxon Akram tadqiqotlarining asosiy tamoyili edi. Olimning ilmiy mushohadalari va munosabatlari bilan tanishish jarayonida boshqa navoiyshunoslardan ajralib turuvchi o‘ziga xos uslubi diqqatni tortadi. Odatda tadqiqotlarda ma’lum qat’iy mezonlarga tayanilgan holda, deyarli ilmiy atamalar vositasida bayon tariqi tutiladi. B.Akramov bu uslubga o‘ziga xos yondoshganligi, bir ma’noda XX asr o‘zbek adabiyotshunoslida yangi talqin yo‘nalishini kasb etgan. Ushbu fikrimizning isboti sifatida quyida o‘tgan asr navoiyshunoslari va B.Akramov talqinlaridan namunalar keltirib o‘tamiz.

1.Sadriddin Ayniy:

*“Shah ki mexohad zi dasti xesh vayronim mulk,
Xusrave beoqibat xusri bilodu kishvarast.*

Bu baytning qisqacha ma’nosи quyidagichadir: “Mamlakatni o‘z qo‘li bilan buzilishini istagan podsho beoqibat podsho bo‘lib, o‘lka va shaharlarning ziyon va zararidir”. Shoир ana shu muddaoni mazkur baytda muammo yo‘li bilan ta’kidlaydi: “Beoqibat” – oxirsiz, “Xusrav” so‘zi xusr bo‘ladiki, buning ma’nosи “ziyon-zarar” demakdir.” [3.28-29]

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2.Aziz Qayumov:

*“Haqdin durur elga ahli ta'yid o'lmoq,
Navmid o'lub tolibi tajrid o'lmoq.....*

Haqdan insonga beriladigan turli – tuman holat va kayfiyatlar ichida eng yoqimlisi va rohatbaxshi ma'yuslik, hazinlik, xomushlik ekani shu hikmat va uning asosida yaratilagn to'rtlikning tub mazmunidir... Sharq ta'lim va tarbiya qoidalari orasida bu omil muhim o'rinn tutadi.” [4.94]

3.Sultonmurod Olim:

*“Desang xilvatim anjuman bo'lmasun,
Kerak anjuman ichra hilvat sanga.*

Bu – naqshbandiyadagi “Xilvat dar anjuman”ning aynan ta'rifi. Demak, xilvatdan mahrum bo'lib qolish yoki xilvat anjumanga aylanib ketishining oldini olish uchun yaxshisi solikning o'zi anjumanda xilvat qila olishga o'rganishi kerak”. [5.100]

4.Botirxon Akramov:

1) *“Chun Navoiy nazmining har harfidur sharhi g'amming,
Desa bo'lurkim, erur har bayti bir bayt ul-hazan.*

Ne ajabki, Navoiyning qahramoni – oshiq taqdiri azal-muhabbat qismatining xohishi bilan shoirga aylangan. Illo, oshiqlik bu valiysiyrat pokdamon zot nazdida ishq vaslining barcha farog'otu mukofotlaridan, dunyoviy ne'mat-u qadriyatlardan, balki ruhiy, hatto ilohiy e'tiqod-u e'timodlardan o'zini mutloq forig' tutmoqlik demakdur. Bas, haqiqiy muhabbatni, uning asli foje' mohiyatini anglab yetgan kishigina shoirga aylanishi, uning har bir o'tli haroratli so'zi oliv qadr, e'zoz topishi kerak”. [2.19]

2) *“Qodiro!... Ul zaifî osiymen
Ki, boshimdin oyoq maosiymen...
Ulki, sendek boshimda Xoliqdur,
“Men” demaklik... ne behayoliqdur!?*

Beixtiyor savol tug'iladi: nega endi “shoirlar shoiri, mutafakkirlar mutafakkiri, valiylar valysi” qilgan munojotda bu qadar mujrimona uzrxohliliklar (“boshdin-oyoq maosiymen” gunohlar majmuidirman), haminqadar to'zimsiz oh-u faryod, ruhiy iztirob bor?.. Ziddiyatlar shiddatini ko'ring: “barchadin sharif” insonni yaratguvchi, alalxusus, uning aziz-u mukarramligi haqqi mo'jizalar mo'jizasi So'zni kashf etguvchi (“So'z kelib avval, jahon so'ngra...” “Hayratul-abror”dan) ul Xoliq ul-qudrat oldida o'zi bunyod etgan mo'jizot-u ajoyibot olami ummon qa'ridan asl “durri samin” “ma'ni guhari”, “so'z guhari”ni axtarib topishga jur'at etish, shu xayrli himmat – jasorat samari o'laroq, dunyoda tengi, nisbati topilmas she'riy devonlar,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ulug‘ masnaviyot dostonlar yaratishdek komronlik murodi... hammasi “malomat bulbuli”, haqir-u benavo Navoiy ko‘nglida, uning “zamon va ahli zamon” jabr-u anduhi, vafosizligi oldida... chindan ham behuda abas bir holdir, balkim?!. Bundayin purdard ziddiyatli xayollar zamzamasini, ishtiboh-iztirob tuyg‘ulari tug‘yoni va poyonini bir qadar umumiy tarzda tasavvur qilish o‘zi oson emas. Zotan, Haq taolo bilan orif insonning g‘oyibona-ruhoniy muloqoti... faqat nabiullohu valiulloh zotlarga musharraf, noyob bir baxtdir. Ne ajabki, hazrat Navoiy kechirgan bundayin shirin iztirob azobli o‘ylar bizga sirli, noma’lum ruhiy rishtalar ilohiy robitalar orqali bog‘lanmaganmikin?!.” [7]

B.Akramov ilmiy analiz xulosalarini muhtaram navoiyshunos olimlar uslubiga tayangan holda o‘ziga xos uslubda – qalb tili vositasida bayon qiladi. Olim baytlar sharhida ilmiy tahlillarini nafaqat nazariy mezonlar asosida amalga oshirgan, balki shakl ortiga yashiringan mohiyatga nazar solishga uringan, shakl va mazmun hodisasining mushtarak talqinlarini xos ko‘rinishda bayon etgan. Bu albatta, B.Akramovning katta o‘zandagi o‘ziga xos ilmiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadi.

B.Akramov tadqiqotlarining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, Navoiy asarlarini tadqiq etishda matnda nazarda tutilgan asliy mazmunga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, XX asrning toki 90-chi yillarigacha hukmon mafkura g‘oyalari Sharq mumtoz adabiyoti yetakchi g‘oyalariغا mutloq qarama-qarshi ko‘rinishda shakllantirilgan edi. Shu nuqtayi nazardan davr tadqiqotlarida deyarli quyidagi tamoyillar yetakchilik qilgan:

1. Matn mazmunining tashqi ma’nolari bilan kifoyalanish
2. Matnlarning ayrim qismlaridan voz kechish
3. Matnlarning kompozision tahlillariga urg‘u berish
4. Tematik jihatdan ijtimoiy g‘oyalari talqiniga e’tibor qaratish.¹

Bir ilmiy suhbatda (bu bir necha yillar avval sodir bo‘lgan) adabiyot ahllari mumtoz asarlarning asl mohiyati haqida suhbatlashib qoldilar. Keyingi davrlarda olib borilayotgan tadqiqotlarga munosabat bildirish jarayonida, bir ilm ahli: “Qanchadan qancha davr adabiyotini o‘rgangan olimlar bularni bilmaganmikanki, “qog‘ozga o‘rab” bo‘lsada “shipshitib” qo‘yishmagan ekan”, -deb qoldi. Shunda suhbatda hozir biri: “Ular buni bilmagan, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q, ular bilganlar, ammo aytishga imkon yo‘qligi bilan bir qatorda mumtoz adiblar va ularning asarlarini (garchi busiz ham tarixdan o‘chib ketmasligi aniq bo‘lsa-da) asrash ma’nosida bundan chetlanganlar”, -dedi.

¹ Ушбу тамойиллар давр нуқтаи назарига нисбатан тақдим этилмоқда, умуйлик характерини касб этмайди.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shunday qaltis vaziyatda Botirxon Akramov ko‘pgina o‘rinlarda ilmiy etiketni saqlagan holda “qog‘ozga o‘rab shipshitish” amalini uddalab, mohiyat va mazmunning xos qirralarini tahlilga torta olgan.

1) *“Yorab! O‘z holimg‘a hayronman base,*

Osiy-u, mast-u parishonman base.

.....insoniy mehr-shafqat, muruvvat hislaridan yiroq, hissiz, bedard “temir odam” toifasidagi xudpisandlar, ularning boshqa xayrixohlari hech qachon “o‘z holiga” boqib o‘tirmaydilar, kim oldida bo‘lmashin, o‘zlarini osiy deb hisoblashdan orlanadilar....”. [2.21]

2) *“Tushta vasli bo ‘lsa gar xud barcha so ‘nggi uyqusidir,*

Ey Xizr, hayvon suvi, ichmakka bedor aylama.

Hatto uyqu ichida – tush ko‘rish asnosida shunchalar e’zozlangan yor vasli, mohiyatda “muhabbat-abadiy” degan e’tiqodni ulug‘lash timsoliga aylanadi. Shoir kuzatgan bu niyat o‘zining chuqur dramatizmi.....bilan muhabbat va vasl haqidagi an’anaviy tasavvurlar doirasiga sig‘maydigan, ehtimol, sufizm falsafasining ilohiy ishq ideali bilan bog‘lanadigan o‘zgacha ruhiy dunyo haqida bahs ochayotganday tasssurot qoldiradi”. [2.91]

Mazkur tahlilga tortilgan kitob nashri mustaqillik davriga to‘g‘ri kelsa-da, olim ushbu monografiya materiallarini sovet mafkurasini davrida tayyorlagan edi.

Botirxon Akramov ijodiy laboratoriyasining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri, monografik tadqiqotlarni tartiblash, nomlashda bevosita navoiyona yondoshuvni lozim tutadi. ”Fasohat mulkining sulton“ monografiyasi mundarijasi buning aniq dalilidir:²

Nº	Mundarija tartibi	Maqolotlar nomi
1	Debocha	-
2	Birinchi maqolot	Atorud “ravon aylagan” qalam
3	Ikkinci maqolot	Ilohiyga munojotu tazarrular
4	Uchinchi maqolot	Tabiat va samovot timsollari
5	To‘rtinchi maqolot	“Zarraning mohiyati”
6	Beshinchi maqolot	“Inson barchaning sarvari”
8	Oltinchi maqolot	“Dardimga hayolini tabib et”
9	Yettinchi maqolot	“Ayni haqiqatdur majoz”
10	Sakkizinchi maqolot	“Subhi visol armonlari”
11	To‘qqizinchi maqolot	“Zamon ahlidin” nolalar

² Фикримиз далили учун мундарижа тўлиқ берилди

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

12	O'ninchı maqolot	Ziddiyatlarning she'riy nisbati
13	O'n birinchi maqolot	Turmush tafsillari
14	O'n ikkinchi maqolot	Xalqona nuqtalar
15	O'n uchinchi maqolot	Mutribona ohanglar
16	O'n to'rtinchi maqolot	Musavvirona ranglar
17	O'n beshinchi maqolot	Afsonaviy-tarixiy timsollar
18	O'n oltinchi maqolot	"Ko'ngil durji" dagi injular
19	O'n yettinchi maqolot	"Gavhari jon" dan -so'z guhari" ga
20	O'n sakkizinchi maqolot	"Ko'z lavhida aks etgan olam
21	O'n to'qqizinchi maqolot	"Orzu uzra" chizilgan lavhalar
22	Yigirmanchi maqolot	"O'zgacha hol" bayoni
23	Yigirma birinchi maqolot	"Izining tufrog'idek..."
24	Intiho so'z	-

Mundarija kompozisiyasi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni kompozisiyasini eslatadi. Bu kabi qarashlar olimning boshqa asarlarida ham kuzatilib, B.Akramov tadqiqotlarining o'ziga xos yondoshuv uslubini belgilab beradi.

B.Akramov ilmiy izlanishlar bilan birga ijod olamida qalam tebratib, badiiy-lirik asarlar ham yaratgan. Uning "Hayratlar olami" to'plami olimning nazmda ham yaxshi ta'b egasi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu to'plamga ijodkor olim qalamiga mansub doston va turli janrlarda bitilgan she'rlar kiritilgan. To'plamga kiritilgan doston va she'rlarda B.Akramov ilmiy tadqiqotlaridagi o'ziga xos uslublarning badiiy ifodasi o'laroq, betakror, fenomen kompozitsion qurilish va poetik talqinga egadir. To'plamga kiritilgan lirik, liro-epik janrlar na'munalarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish jarayonida olimning butun umri davomida Hazrat Navoiyga ma'nan sodiq qolganligi, hatto qalbidagi iztiroblar, orzu-xayollari ham Alisher Navoiy ruhiyatiga monand ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Har qanday ilmiy tadqiqotlar olib borishda tanlangan obyekt bilan bog'liq asl matn izlanish ishlarida muhimlik darajasining avvalida turadi, shu bilan birga tanlangan obyekt ustida tadqiqot ishlari olib borgan soha olimlarining ilmiy izlanishlari ham yangi tadqiqotlar uchun muhim manbaa vazifasini o'taydi. O'zbek adabiyotshunosligida, xossatan, o'zbek navoiyshunosligida olib borilgan yuzlab tadqiqotlar Navoiy merosining asl mohiyatini anglash, ma'naviy-ma'rifiy tadrijni sodir etuvchi uzlusiz harakatning asosiy energiya asosidir. Navoiyshunos olim Botirxon Akramov ilmiy faoliyati davomida navoiyshunoslik borasida olib borgan ishlari ayni ana o'sha harakatlantiruvchi omil ruknlaridandir. Shunday ekan,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

B.Akramov ilmiy tadqiqotlari natijalariga murojaat qilish ko‘zlangan maqsad natijalari garovidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Botirxon Akram.Hayratlar olami.-Toshkent.2014
2. Botirxon Akramov. Fasohat mulkining sultonasi.Toshkent. 1991
3. Sadriddin Ayniy.Asarlar.8-tom.Toshkent. 1967.B-28-29
4. AzizQayumov.Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar.Toshken. 2014.B-94
5. Sultonmurod Olim.Naqshband va Navoiy.Toshkent.1996.B-100
6. <https://botirxonakram.uz/about>
7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/botirhon-akram-suzum-martabasi-navoiy-ijodhonasi-haqida-suhbatlar/>